

MENING DO'STLARIM SHIFOXONADA VAQT QUVNOQROQ VA FOYDALI O'TISHI UCHUN NIMA QILISH KERAKLIGI BO'YICHA BILGANLARI BILAN O'RTOQLASHDILAR:

Nozima, 11 yosh:

«Dorilarni vaqtida ich, shifokorlarni hurmat qil. Shifoxonada hamma bir-biriga do'st, sen ham shunday bo'l, xuddi uydagiday, o'zligincha bo'l, boshqa bolalarga mehr ko'rsat».

Tursunoy, 17 yosh:


«Sen uyga qaytishing uchun tezroq sog'ayishing kerak. Sog'lom bo'lsang, hayotdagi maqsadlaringga erisha olasan».

Soliha, 14 yosh:

«Eng muhimi – tuzalib ketish va o'zingni ehtiyot qilish. Bu yerda ko'plab yangi do'stlar orttirasan. Barcha bilan do'stlashishga harakat qil. Yangi kelgan bo'lalarga yangi sharoitga ko'nikishlarida yordam ber. Do'stlaring va tanishlaring ko'p bo'lganida, shifoxonada davolanish vaqting bilinmay o'tadi».

Malika, 12 yosh:

«Bu yerda biz chiroyli rasmlar chizishni, yangi o'yinlar o'ynashni, sochni chiroyli turmaklashni o'rgandik, do'stlarimiz bilan kitoblarimizni almashtirib o'qidik, boshqa tilda gapirishni o'rgandik. Bu yerdagi vaqtim foydali o'tdi».



Shobona, 13 yosh:

«Yig'lama, sen tuzalib ketasan. Men ham shu yerda davolanayapman. Biz sen bilan tuzalamiz va uyimizga ketamiz. Bolalar bilan o'yna va hovliga chiq va sening shifoxonadagi kunlaring tez o'tadi».

Kamron, 11 yosh:

«Yig'lama, shifoxonada sharoitlar yaxshi. Sen uyga qaytishing uchun tuzalishing kerak. Buning uchun esa, dorilarni o'z vaqtida ich».

Fotima, 10 yosh:


«Yaxshi narsalar haqida o'yla, qayg'urma, qo'rqqan vaqtingda duo qil. Hammasi yaxshi bo'lib ketishini tasavvur qil, shifokorlarga quloq sol, sog'lom bo'lib uyga qaytib ketayotganingni tasavvur qil».

Albina, 12 yosh:

«Ota-onang, kelajaging haqida o'yla. Shifokorlarning barcha aytganlarini bajar».

TUBERKULYOZ INSONNING O'PKASI VA BOSHQA A'ZOLARIGA HAM ZARAR YETKAZISHI MUMKIN. LEKIN, BU – DAVOSI BO'LGAN KASALLIKDIR!

TUBERKULYOZNI DAVOLASH KURSI KAMIDA 6 OYDAN IBORAT BO'LADI



ENG MUHIMI KASALLIKNI ERTA ANIQLASH, DORI-DARMONLAR BILAN DAVOLANISHNI IMKON QADAR ERTA BOSHLAB SOG'AYGUNG A QADAR TO'LIQ DAVOM ETTIRISHDIR

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi:

Toshkent shahri. Shayxontoxur tumani, Majlisiy ko'chasi, 1

Tel. +998 99 353 76 96
+998 71 278 02 09

NNT «INTILISH» Respublika axborot-ta'lim markazi:

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Asaka ko'chasi, 1-tor ko'cha, 10-uy

Tel. +998 71 202-15-55

Ushbu nashr Amerika Qo'shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) orqali Amerika xalqining yordami bilan amalga oshirildi. Nashrning mazmuni uchun «INTILISH» RATM NNT mas'uldir va u USAID pozitsiyasidan farq qilishi mumkin.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya
va pulmonologiya ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi



USAID
AMERIKA XALQIDAN



«O'ZBEKISTONDA TUBERKULYOZNI TUGATISH» LOYIHASI



TUBERKULYOZNING DAVOSI BOR!

Davo kursini qabul qilayotgan
bolalar uchun axborot

2023


Salom! Kel, do'stlashamiz! Hozir senga o'zim bilan bo'lib o'tgan voqeani aytib beraman.

Bir kuni kasal bo'lib, qattiq yo'talib, o'zimni juda yomon xis qildim. Onam meni poliklinikaga olib bordilar, keyin esa meni maxsus shifokor – ftiziatrga yuborishdi.



Mendan tahlil uchun namunalar olishdi, ko'krak qafasimni rentgen qilishdi. Shifokor menda **tuberkulyoz** borligini aytdi.

Tuberkulyoz shunday kasallik-ki, agar odamning organizmiga zararli va xavfli bakteriya tushib qolsa, organizmning himoya kuchlari esa uni yenga olishmasa, odam shu kasallikka chalinishi mumkin.




Tuberkulyozdan davo topish uchun shifokor tomonidan tavsiya etilgan dorilarni davomli qabul qilish lozim bo'ladi. Davolanishni shifoxonada boshlab, keyin esa uy sharoitida davom ettirsa bo'ladi.

Shu bilan meni shifoxonaga yotqizishdi. Boshida men hafa bo'ldim, chunki oila a'zolarim uyda qolgan edi, yana maktabdagi do'stlarim ham. Shifoxonada esa hech kimni tanimas edim.



Lekin men bilan bitta xonada yotgan qizni aytishicha boshida unga ham bu yoqmagani va u xafa bo'lib yurgan, keyin esa boshqa bolalar bilan do'stlashgan va uning kayfiyati ko'tarilgan ekan.




Dugonamning aytishicha, bu yerda – shifoxonada, mahsus xona bo'lib unda bolalar bilan psixolog va ijtimoiy xodim shug'ullanar ekan. Bolalar u yerda ko'p rasmlar chizadilar, plastilindan turli narsalar yasaydilar va turli qiziq o'yinlar o'ynaydilar. Bundan tashqari, «Bemorlar maktabi»dagi mashg'ulotlarda nega dorilarni ichish shunchalik muhim ekanligi va tuberkulyozni qanday yengish mumkinligini tushuntirishadi.

Shifokor menga dorilarni yozib berdi, hamshira esa ularni to'g'ri qabul qilishimda yordam berar edi.




Dorilar xuddi superqahramonlarga o'xshab mening organizmimdagi tuberkulyoz bakteriyalari bilan kurashadilar va ularni yengadilar.

Dorilarni qanchalik uzoq vaqt ichida ichib yursam, organizmimdagi zararli bakteriyalar shunchalik kamayib borardi.



Lekin, agar dorilarni ichishni to'xtatib qo'ysak, tuberkulyoz bakteriyalari kuchayib ketadi va ulardan qutulish qiyin bo'ladi, natijada ancha uzoqroq davolanish kerak bo'ladi.

Yana shuni bilamanki, organizm kasallik bilan kurasha oladigan kuchga ega bo'lishi uchun barcha bemorlar yaxshi ovqatlanishlari, ochiq havoda ko'p sayr qilishlari va ko'proq dam olishlari kerak bo'ladi. Shifoxonada bizni yaxshi ovqatlantirishardi – kuniga besh mahal.



O'shanda, shifoxonada, men albatta o'sha zararli bakteriyalarni yengishim va sog'ayib ketishim kerak deb qaror qildim.

Vaqt o'tdi. Men dorilarimni vaqtida ichdim, shifokorlarning aytganlarini qildim, va mening sog'ligim yaxshilana boshladi. Uyga ketishimga ruxsat berishdi va to'liq sog'ayib ketishim uchun yana ma'lum muddat dorilarni ichib yurdim.

Endi men maktabga borishim va do'stlarim bilan suhbatlashishim mumkin, muhimi – dorilarni o'z vaqtida ichish!

Bugun men butunlay sog'lomman!

Tuberkulyozning davosi bor!

